

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchilari Denov tumanidagi 19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida "Interaktiv metodlar" mavzusida o'tkazilgan "Mahorat dars"lari

BAYONI

"2" 06 2022 yil

Denov tumani

Yig'ilish raisi:

Oxotom mahallasi

Qatnashdilar:

29

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o'qituvchilari umumta'lim maktablari bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi, ta'lim sifati, mazmuni va samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganligi bilan ahamiyatli bo'lmoqda. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchilari №19 sonli umumiy o'rta ta'lim maktabga tashrif buyurib, o'qituvchi hamda o'quvchilar bilan "Interaktiv metodlari" mavzusida seminar o'tkazdi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga qaratilgan e'tibor va dars jarayonida o'quvchilarni darslarni tez va oson o'zlashtirishlari uchun interaktiv metodlardan samarali foydalanish, o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini oshirish bo'yicha davra suhbatlari tashkil etildi. Davra suhbatlari davomida mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayoni, mazmuni, mohiyati va yoshlar o'rtasida iqtidorli, shijoatli salohiyatli yoshlar ko'pchilikni tashkil etishi haqida alohida ta'kidlab o'tildi.

Mamlakatimizning ertangi kuni kelajagimizning nurafshon bo'lishi bevosita bugungi kun yoshlarimizga bog'likligi, bilimli yoshlarimiz o'z bilimlarini amaliyotda ham sinashlari bu bilan o'zlari ham payqamagan qobiliyatlarini kashf etishlari mumkinligini, fanning aniq yo'nalishi bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlab o'tdilar. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchilari bu mavzular yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bildirdilar. O'qituvchilarga elektron ma'lumotlar bazasi imkoniyatlaridan foydalanishni, izlanib, o'qib katta yutuqlarni qo'lga kiritish mumkinligini ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birgalikda darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar bilan fan tugarklarini tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlarni fanlar bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlar o'rganildi.

O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojatlar qilishdi va tegishli javoblarni olishdi. O'qituvchilar ham o'z fikr mulohazalari bildirishdi.

Yig'ilish raisi:

Yig'ilish kotibi:

Hamkor tashkilot:

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchilari

Denov tumanidagi 19-umumta'lim maktabi bitiruvchilari bilan uchrashuv
jarayonlaridan fotolavhalar

